



## METHODS OF TEACHING THE MODULE "SPEECH TECHNIQUES AND ITS OWN PROPERTIES" ON THE BASIS OF INNOVATIVE APPROACH

Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Namangan State University

1st year master's degree at the Faculty of Theory and History of Pedagogy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4707205>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> April 2021

Accepted: 19<sup>th</sup> April 2021

Online: 21<sup>st</sup> April 2021

### KEY WORDS

Speech, speaker, innovative, speech technique, high breath, sound, thinking, high breath, chest breathing.

### ABSTRACT

*It is gratifying that words and phrases such as innovation, pedagogical technology, interactive methods, communication have penetrated into almost all areas of education. The aim is to keep pace with the times and to solve the problem of effective, fast and easy delivery of scientific and theoretical information. The effectiveness of education is determined not only by the demands of development, but also by the increase in the level of knowledge, intellectual capacity, mastery. This article discusses the specifics of the art of speech and public speaking, the role of innovative technologies in the formation of speech skills.*

## INNAVATSION YONDASHUV ASOSIDA "NUTQ TEXNIKASI VA UNI ÒZIGA HOSLIKLARI " MODULINI ÒQITISH METODLARI

Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Namangan Davlat Universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi fakulteti 1-kurs magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-aprel 2021

Ma'qullandi: 19-aprel 2021

Chop etildi: 21-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

Nutq, notiq, innovatsion, nutq texnikasi, yuqori nafas, tovush, fikr yuritish, yuqori nafas, ko'krak nafas.

### ANNOTATSIYA

*Innovatsiya, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, kommunikatsiya kabi so'z va so'z birikmalari ta'limning deyarlik barcha yo'nalishlariga kirib borganligi quvonarlidir. Bularidan ko'zlangan maqsad zamon bilan hamqadamlilik va yangiliklarni, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni ta'sirchan, tez va oson etkazish muammolarini hal etishdir. Ta'lim-tarbiya ta'sirchanligi taraqqiyotning talabigina bo'lib qolmay, balki bilim olish, intellektual salohiyatni oshirish, o'zlashtirish darajasining yuksalishi bilan ham belgilanadi. Ushbu maqolada nutq va notqlik san'atining o'ziga xosligi, nutq mahoratini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni masalasiga munosabat bildiriladi.*



Taraqqiyotning talabi zamonaviylik va yangilikka intilish bilan ekani ma'lum. Barcha jabhalarda bo'lgani singari madaniyat va san'atning ravnaqi ham ana shu mezonlarga tayanadi. Hozirgi kunda innovatsiya, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, kommunikatsiya kabi so'z va so'z birikmalari ta'limning deyarlik barcha yo'nalishlariga to'la kirib borganligi quvonarli holdir. Bulardan ko'zlangan maqsad zamon bilan hamqadamlik va yangiliklarni, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni ta'sirchan, tez va oson etkazish muammolarini hal etishdir. Ta'lim-tarbiya ta'sirchanligi taraqqiyotning talabigina bo'lib qolmay, balki bilim olish, intellektual salohiyatni oshirish, o'zlashtirish darajasining yuksalishi bilan ham belgilanadi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim shartidir."

Shubhasizki, barqaror taraqqiyot va modernizatsiyaning tub mohiyati ham ta'lim-tarbiya ta'sirchanligiga borib bog'lanadi. Bu esa novatorlikni ya'ni, yangilikka intilishni, interfaol usul va uslublarni istifoda etishni, turli innovatsion va axborot kompyuter texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim ta'sirchanligi, samaradorligi va sifatini oshirishga erishishni taqozo etadi.

Nutqning aniqligiga, talaffuzning tiniqligiga erishish, yutuq va kamchiliklarni anglash, ularni tuzatish uchun tinimsiz mashqiy jarayonni amalga oshirish kerak. Dastavval, har bitta talabaga berilgan matnni qanday o'qishi tekshiriladi. Nazmiy yoki nasriy matnni o'qishida uning o'z tushunchasi aks etadi. Ya'ni, kimning qanday o'qishi uning shunday tushunishidir. Navbatma-navbat boshqa talabalarga o'tishdan oldin matnni ifodali o'qib, uning mazmunini

so'zlab bergan talabaga xos bo'lgan nutqiy yutuq va nutqiy nuqsonlarni aniqlash jarayonini amalga oshirish talab etiladi. Har biri o'z nuqtai nazarini kuzatuvlari asosida bayon etishadi. Shu yo'sinda kamchiliklar aniqlanadi. Chunki, aksariyat talabalar turli viloyatlardan bo'lib ular nutqida mahalliy sheva unsurlari sezilib turadi. Adabiy til me'yorlariga rioya etishlari uchun mashaqqatli mashqiy jarayondan o'tishlari kerak. Bu esa uzluksiz va muntazam ravishdagi izlanish va takroriy mashqlar bilan hal etiladi. Talabalarning nuqsonlari bilan o'qilgan ovozli matnlari saqlab qo'yilishi, imkoni bo'lsa, o'zlariga ko'chirib berilgani ma'qul. Toki, ular o'z kamchiliklarini bilib, tugatsinlari uchun. So'ng taqdim etilgan she'riy yoki nasriy matnning taniqli va tajribali suxandon yoki aktyorlar ijrosida o'qilgan ovozli variantini ularga qo'yib berish ham bu borada ancha samara berishi haq. To'g'ri, did bilan dillashish mushkul. Hammaning o'z qarashi, didi va baholash mezonni bor. Lekin shuni yodda tutish zarurki, matn mazmuni, so'z ma'nosi qanday o'qishni ko'rsatuvchi yo'llanmadir.

Notiqlikda so'z qo'llash mahorati borasida so'z ketganda, notiq nutqida uch bosqich amalga oshiriladi. Bu topish, tanlash, va qo'llashdir. Topish notiqning so'z boyligiga daxldor bo'lsa, tanlash didi, saviyasiga, qo'llash esa uning mahoratiga tegishlidir. Topish til boylıklaridan, sinonimlardan qanday foydalana olishingizga mezon bo'lsa, tanlash psixologik, etik va estetik normalarga amal qilish zaruratini bildiradi. Qo'llash esa og'zaki yoki yozma ravishda bo'ladi. Siz tinglovchi yoki tomoshabin bilan yuzma-yuz bo'lasiz. Aytilgan so'z otilgan o'qdek keta boshlaydi. Zal yoxud auditoriyada o'zingizni, so'zingizni, yuzu ko'zingizni jamoaga roslaysiz, xoslaysiz, moslaysiz. Aks holda, fikr ommaga etib bormaydi, maqsad to'g'ri



yo'naltirilmagan bo'ladi. Jamoaga etkazmoqchi bo'lgan fikringiz, oliy maqsadingiz strategiya bo'lsa, uni amalga oshirish bilan bog'liq usul va yo'llar esa taktikadir. Har qanday taktik harakat strategik maqsad bilan ekanini yodda tutish mohiyatlidir. Vaziyatga, omma kayfiyatiga qarab taktikani almashinib turishini e'tibordan soqit qilish yaramaydi. Nutqning jonli, ta'sirchan va aniq ifodalashga intilish, ya'ni, ijro mahoratiga erishish ahamiyatli.

Notiqning nutqiy jarayoni uch bosqichli bo'lsa, sahna nutqida esa ikkita bosqich amalga oshiriladi. Bu yodlash va aytish. Matn turg'unligi aktyorning erkin harakat qilishiga imkon bermaydi. U ta'bir joiz bo'sa, jilovlangan ot kabidir. To'g'ri, aktyor matn mazmuni va ruhidan kelib chiqqan holda, ba'zan improvizatsiyaga yo'l qo'yishi mumkin. Lekin, me'yordan oshib ketishi ma'qul ko'rilmaydi. Aktyor quvvai hofizasi va so'zlarni aniq, jozibador, ta'sirli ayta olishi bilan notiq'larga ibrat bo'ladi deyish mumkin. Chunki, ularda ovoz, nafas mashqlari, til, tish, burun, lab, jag' kabi nutq a'zolarining maromli, me'yoriy harakatlari qayta-qayta ishlanib takomillashgan bo'ladi.

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridan biri o'qituvchining nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini egallashdan iborat.

O'qituvchining nutq madaniyatiga ega bo'lishi, to'g'ri nafas olishni ishlab chiqishi eng katta – eng asosiy qiymatdir. Og'zaki nutq mahoratini yuksaltirish, nafaqat hikoya va tushuntirish, balki urg'u berilgan so'z ham pedagogik ta'sir usullaridan yaxshiroq foydalanishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir necha mashq komplekslari ishlab chiqilgan. Ular, asosan teatr pedagogikasi

tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtiradi, bu esa o'qituvchiga o'z so'zi mazmunini o'quvchilarga yanadi to'laqonli qilib yetkazishga imkon beradi.

Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funktsiyani bajaradi. Shu bilan birga u nutq energiya bazasi bo'lib ham hisoblanadi. Nutq so'zlayotganda nafas olish – fonatsion nafas olish deyiladi (rengotovush). Kundalik hayotdagi nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. SHuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Dars davomida o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ruza o'qiydi. Nutq so'zlashda qaysi mushaklarning ishtirok etishiga qarab nafas olish 4 turga bo'linadi.

Yuqori nafas – yelkalarining ko'tarilib tushishi va ko'krak qafasining yuqori qismi ishtirokida hosil qilinadi. Bu bo'sh yuzaki nafas bo'lib, unda o'pkaning faqat yuqori qismi ishtirok etadi.

Ko'krak nafas - qovurg'alar o'rtasidagi mushaklar yordamida hosil bo'ladi. Bunda ko'proq nafasning ko'ndalang hajmi o'zgaradi. Diafragma ishtirokidagi nafas - ko'krak nafasning bo'ylama hajmini oshishi hisobiga vujudga keladi. Diafragma - qovurg'ali nafas, diafragmaning qisqarishi qovurg'alar oralig'idagi nafas mushaklari ishtirokida vujudga keladi.

Tovush – chiqarilayotgan havo hiqqildoqdan o'tishi paytida ovoz pardalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Tovush o'zining qo'yidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

Tovush kuchi - tovush apparati organlarining faol ishlashiga bog'liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tarqalishiga bo'lgan bosimi qancha katta bo'lsa, tovush ham shuncha kuchli bo'ladi.

O'qituvchilar asabiylashmasligi, ayniqsa, ovqat yeyish kun tartibiga rioya



qilishlari kerak. Masalan: achchiq, issiq, sovuq, spirtli ichimliklar ichish, chekish ovoz paydo bo'lish a'zolarining qizarishiga, yallig'lanishiga sabab bo'lishi mumkin. Tomoqni qurib qolishidan saqlash uchun mutaxassislar soda va yod eritmasi bilan halqumni chayqab turishni tavsiya etadilar. Quyidagi maslahatlar ham o'qituvchilarga foydali:

- 1) bir xil tonda gapirish ovoz muskullarini charchatib qo'yadi. Agar har xil, ifodali belgilar bilan gapirilsa, ovoz apparatlari sog'lom bo'ladi;
- 2) bo'r-melning mayda changlari **ovoz paylari uchun juda ham** zararli, doimo doskani ho'l latta bilan artish kerak;
- 3) dars bergandan so'ng, agar havo sovuq bo'lsa, tez yurmaslik kerak. Chunki, sovuq havo xalqumni yallig'lantiradi.

O'quvchilarning o'qituvchi nutqini yaxshi idrok etishlari uchun o'qituvchi tovush, so'zlarni aniq va ifodali talaffuz qilishi kerak. Tovush, bo'g'in va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda ovoz apparati: lablar, til, tish, jag'lar, tanglay, kichik til, halqum, ovoz paylari qatnashadi. Nutqdagi organik kamchiliklarni jarrohlik va logopedik uslublar bilan bartaraf etish mumkin.

Noorganik kamchiliklar esa: to'ng'illab gapirish, soqovlanish, duduqlanish, ba'zi bir tovushlarni talaffuz eta olmaslik, burunda gapirish, tez gapirish, chala gapirish.

Bularni bartaraf etish uchun nutq organlari harakatini artikulyatsiya gimnastikasi orqali mashq qildirish tavsiya etiladi. Bu ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: a) nutq apparatlarini mashq qildirish, b) har bir unli va undosh tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasini mashq qilish.

Nutqning tezligi, alohida bo'g'inlarning va so'zlarning jaranglashi, shuningdek, nutq ritmidagi pauzalarga rioya

qilish nutqning ritmini tashkil etadi. K.S.Stanislavskiyning ta'kidlashicha, intonatsiya va pauzaning o'zi, so'zdan ham ortiqroq eshituvchiga hissiy ta'sir etar ekan. Nutq tezligi o'qituvchining individual xususiyatlariga, nutq mazmuniga va muloqot vaziyatiga qarab o'zgaradi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari: o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir.

**Nutq qobiliyatini o'stirish vositalari.** Matn o'qish. Matnni baland ovozda o'qish. Bunda vaqti-vaqti bilan faraz qilinayotgan auditoriyaga nigoh tashlab turing. Bunda faraziy ko'z qarashlar orqali erkin nutq hissiga erishishga harakat qiling. SHu bilan birgalikda matnning keyingi so'zlarini bir zumda oldindan o'qib xotirangizda saqlash va keyin talaffuz qilishga o'rganing. SHunda nutqingizda uzilish bo'lmaydi.

Matn ma'nosini etkazib berish. Matnning ikkitadan beshta gapgacha bo'lgan qismini o'qib uni gapirib bering. Bunda so'zma-so'z gapirishga yoki o'z so'zlaringiz bilan ifodalashga harakat qiling.

Fikr yuritish. Erkin nutqqa ko'p marotaba o'qish yoki yodlash olib kelmaydi. Aksincha bu maqsadga erishishga konspekt va tayanch iboralar asosida nutq tuzish va fikr yuritish zamin yaratadi.

"Fikr yuritish" iborasidan tafakkur va nutq o'rtasidagi mustahkam bog'lanishni belgilash uchun foydalanamiz. Bu degani, fikrning asosi kalit so'zlar qatori orqali ifodalangan. Bitta fikrni kalit so'zlarga tayangan holda turlicha shakllantirish mumkin.

Hikoya. O'zingiz yoki boshqa kimdir bilan sodir bo'lgan voqealarni gapirib berishda mashq qiling.



Ish yuzasidan axborot berish. Gazeta maqolasidan kalit soʻzlar majmuasini tayyorlang va “oʻzingizning soʻzlaringiz”ga oʻgʻirgan holda uning mazmunini yoritib. Shundan soʻng maqolani birgina gapgacha qisqartiring, keyin esa oʻz fikrlaringizni qoʻshish orqali uni kengaytiring.

Rasmlarni sharhlash, ekspromt tarzda nutq soʻzlash ham katta samara beradi.

Notiq nuqtai nazarini ifodalovchi nutq. Aniq mavzuga (xobbi, kasbiy maqsad va hokazo) bagʻishlangan 3 minutdan 5 minutgacha boʻlgan axborot tayyorlang. Uning boshki qismida kalit soʻzlardan foydalaning, oxirgi qismini esa erkin tarzda shakllantiring (nutqni ham ovoz chiqarib, ham ovozsiz takrorlab koʻring). Maqolada berilgan maʼlumotga oʻz munosabatingizni aniqlang: shu fikrga qoʻshilasizmi yoʻqmi? Fikringizni tasdiqlovchi qoʻshimcha maʼlumotlar keltiring.

Notiqlar nutqini oʻrganish. Notiqlar chiqishlarini kuzatganda ularni ikki nuqtai nazardan tahlil qiling:

- 1) nima deyildi?
- 2) qanday aytili? (ovoz kuchi, balandligi, urgʻu, temp, talaffuzi, imo-ishora).

Nutq tahlili. Chop etilgan nutq “jonli” nutqni aynan ifodalay olmaydi, lekin koʻp narsaga oʻrgatishi mumkin: tuzilishi, kompozitsiyasi, uslub va boshqaga.

Munozaralar. Nazariy tayyorgarlik, mashqlarni mustaqil bajarganingizdan soʻng oldin kichik, keyin esa kattaroq auditoriyalar oldida nutq soʻzlashda mashq qilishingiz kerak.

Nutq. Endi dokladga oʻtsa ham boʻladi. Buning uchun oldin oʻzingiz puxta bilgan bilimlar sohasini tanlang va barcha koʻrsatmalarni yodda tutgan holda nutq soʻzlashga harakat qiling.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. YUksak maʼnaviyat engilmas kuch-T Maʼnaviyat, 2008
2. Ishmuhammedov R., AbduqodirovA., Pardaev A.Taʼlimda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2008.
3. A.Nosirova. “Sahna nutqi” “Tafakkur boʻstoni”, T – 2013.
4. Xodjimatoval M. “Sahna nutqi” XrestomatiY. T. 2011.
5. Jumanov I. Sahna nutqi. –T., 2007.
6. Stanislavkiy K.S. Rabota aktyora nad soboy chast-2.-M.: Isskustvo.
7. Inomxoʻjev S.Badiiy oʻqish asoslari. –T.: Oʻqituvchi, 1973.